

*Gulistan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası*

*o'qituvchisi **Abdujalilov Bekzod**,*

*“Ijtimoiy ish” yo'nalishi 4-kurs*

*Talabasi **Tursunboyeva Maftuna***

***Kalit so'zlar:*** *O'zbekiston Respublikasi, oila, ijtimoiy ish, oilani qo'llab-quvvatlash, muammoliy oilalarni integratsiyalash, dastur, ijtimoiy ish aspekti.*

***Ключевые слова:*** *Республика Узбекистан, семья, социальная работа, поддержка семьи, интеграция проблемных семей, программа, аспект социальной работы.*

***Key words:*** *Republic of Uzbekistan, family, social work, family support, integration of problem families, program, aspect of social work.*

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'tishi bilan oq oila institutiga bo'lga munosabati tubdan o'zgardi. Hamda shu bugunga qadar oila masalasi davlat diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo'lib, bolalarni ijtimoiylashuvi uchun muhimdir. Oila - bu qon-qarindoshlik, nikoh yoki birga yashash orqali bog'langan ikki jins vakillarining guruhidir. Yana kengiroq yoritadigan bo'lsak, oila - bu insonlar o'rtasidagi yaqin munosabatlar va bir-biriga bo'lgan g'amxo'rlik asosida qurilgan kichik ijtimoiy guruhdir. Odatda, oila ota-ona va farzandlardan iborat bo'ladi, lekin keng ma'noda bu tushunchaga bobo-buvilar, amaki-xolalar va boshqa qarindoshlar ham kiradi. So'nggi yillarda yurtimizda oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lamini va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ijtimoiy ish sohasi va ularda faoliyat yuritayotgan hodimlar tomonidan oilalarning muammolarini aniqlash va ularga yechim topishda yordam bermoqda. Bu jarayon oilaviy qiyinchiliklarni hal qilish orqali

yanada jiddiy muammolarni oldini olishga yordam beradi. Bu o‘zi qanday soha? Qanday ish olib boradi? Ijtimoiy ish — bu odamlar va ijtimoiy guruhlariga qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan professional faoliyat.

Xususan, ijtimoiy ishning asosiy maqsadi oilalarni qo‘llab-quvvatlash va ularning farovonligini ta‘minlashdir. Bu jarayonda ijtimoiy xodimlar oilalarga psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy yordam ko‘rsatadilar(1). Bunga misol tariqasida 2020-yil fevral oyida jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga kompleks yondashuvchi yangi davlat tashkiloti — Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi va bu soha qoshida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti ochildi. Unga ko‘ra namunali oila mezonlarini hayotga joriy etish, oilalarda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari” ish boshladi va "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan shu davrga qadar oilalarda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, og‘ir vaziyatga tushgan oilalar bilan ishlash, suitsid holatlarini oldini olish, yoshlar orasida tadbirkorlik muhiti va madaniyatini shakllantirishga qaratilgan 5 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma tayyorlangani va jamiyatga tadbiq etilgani bunga yorqin misoldir. Bundan tashqari oilalarni qo‘llab-quvvatlashning turli usullari mavjud. Masalan, ijtimoiy xizmatlar, maslahat berish, moliyaviy yordam va ta‘lim dasturlari orqali oilalarga yordam berish mumkin.

Ijtimoiy ish amaliyotida ijtimoiy qadriyatlar va keys-menejment standartlariga asoslangan holda ishlash muhimdir. Bu oilalarning ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlarni taqdim etishga imkon yaratadi. Shuningdek, oilalarni qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy-iqtisodiy ta‘siri juda keng qamrovli va muhimdir.

**Quyida bu ta‘sirning asosiy jihatlari keltirilgan:** 1. Oilalarni qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash mumkin. Bu, ayniqsa, zaif va himoyaga muhtoj oilalar uchun muhimdir. Ijtimoiy barqarorlik oilalarning farovonligi va xavfsizligini oshiradi. Masalan, "Kambag‘allikdan farovonlik sari" dasturi: Ushbu dastur 2024-yilda qabul qilingan bo‘lib, uning asosiy maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirishdir. Dastur doirasida

2024-2025-yillarda eng og'ir ahvoldagi 1000ta mahallani tanlab, ularning infratuzilmasini yaxshilash uchun jami 3,2 trillion so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilganligi.

2. Oilalarga ko'rsatiladigan moliyaviy yordam va ta'lim dasturlari esa ularning iqtisodiy holatini yaxshilaydi. Bu esa o'z navbatida, jamiyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Masalan, oilalarga kichik biznesni boshlash uchun beriladigan kreditlar ularning daromadini oshiradi. 3. Jinoyatchilikning kamayishiga erishish. Oilalarni qo'llab-quvvatlash orqali jinoyatchilik darajasini kamaytirish mumkin. Ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash tizimlari, oilalarning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordam beradi, bu esa jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi. 4. Oilalarni qo'llab-quvvatlash jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi. Bu esa jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash madaniyatini rivojlantiradi.

5. Oilalarni qo'llab-quvvatlash sog'liqni saqlash tizimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi sog'lom muhitni mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo "Sog'lom oila-sog'lom jamiyat" g'oyasini hayotga tatbiq etish va bu orqali homilador ayollar va yosh bolalar uchun, sog'lom muhit yaratishga yordam beradi va bolalarning sog'lom o'sishi va rivojlanishiga zamin yaratadi, kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu kasalliklarning oldini olish va ularni davolashda samaradorlikni oshiradi. Psixologik va tibbiy yordam ko'rsatish orqali oilalar sog'lom turmush tarzini olib borishlari mumkin. Oilalarga psixologik yordam ko'rsatish, stress va ruhiy salomatlik muammolarini kamaytirishga yordam beradi. Bu umumiy sog'liqni saqlash tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oilalarni ijtimoiy himoya qilish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash orqali sog'liqni saqlash tizimiga yukni kamaytiradi. Bu esa jamiyatda umumiy sog'liqni saqlash darajasini oshiradi.

6. Oilalarga ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish ularning bilim va ko'nikmalarini oshiradi. O'zbekistonda bu borada bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi doirasida oilalarga ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish, ularning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash va ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar

ko'rilmogda. Bundan tashqari, UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar ham oilalarni qo'llab-quvvatlash va ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha turli treninglar va dasturlarni amalga oshirmogda. Bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydi va bandlik darajasini oshiradi.

**Oila ijtimoiy ishning turli xil aspektlarini o'z ichiga oladi. Birinchidan,** oilalarga favqulodda vaziyatlarda yordam berish, masalan, tabiiy ofatlar, zo'ravonlik yoki boshqa inqiroz holatlarida. **Ikkinchidan,** oilalarni jamiyatga integratsiya qilish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va ijtimoiy izolyatsiyani kamaytirish. **Uchinchidan** esa ish bilan ta'minlash, oilalarga ish topishda yordam berish, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish kurslariga yo'naltirish. **To'rtinchidan,** uy-joy masalalari va uy-joy bilan bog'liq muammolarni hal qilishda yordam berish, masalan, ijaraga olish, uy-joy kreditlari va boshqalar kiradi.

**O'zbekistonda davlat tomonidan oilaviy muammolarni bartaraf etish uchun bir qator dasturlar amalga oshirilmogda. Quyida ba'zi muhim dasturlar keltirilgan:**

1. "Har bir oila – tadbirkor" dasturi: Bu dastur oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, oilalarga imtiyozli kreditlar ajratish orqali ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

2. "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi: Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish va ularning biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratiladi.

3. "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari": Bu dasturlar orqali ehtiyojmand xotin-qizlar va yoshlar qo'llab-quvvatlanadi. Ular uchun moliyaviy yordam va imtiyozli kreditlar taqdim etiladi.

4. "Mehr daftari": Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy etilgan dastur. Bu dastur orqali bolalar 25 yoshga to'lgunga qadar moliyaviy yordam oladilar.

5. "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" dasturi: Bu dastur mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan. Dastur doirasida mahalliy hokimiyat organlari faoliyati takomillashtiriladi va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifati oshiriladi.

6. “Temir daftar”: Bu dastur orqali ehtiyojmand oilalar va kam ta’minlangan qatlamlarga moliyaviy yordam ko’rsatiladi. Dastur doirasida oilalarga imtiyozli kreditlar ajratiladi va ularning turmush darajasi yaxshilanadi.

O‘zbekistondagi eng katta loyhalardan yana biri bu O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy Himoya Milliy agentligi (IHMA) 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab o‘z faoliyatini boshlaganligidir. Ushbu agentlikning tashkil etilishi ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali va adolatli qilish maqsadida amalga oshirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy Himoya Milliy agentligi (IHMA) oilalarga qaratilgan bir qator ijtimoiy siyosat va dasturlarni amalga oshiradi. Ushbu siyosatlar oilalarning farovonligini oshirish va ularning ijtimoiy himoyasini ta’minlashga qaratilgan.

***Quyida asosiy yo‘nalishlar keltirilgan:***

1. Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko’rsatish, shu jumladan, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zaruriy ehtiyojlar uchun mablag‘ ajratish.

2. Bolalar va yoshlar uchun ta’lim-tarbiya olishlari, sog‘lom hayot kechirishlari uchun ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish, shu jumladan, bolalar bog‘chalari va maktablarda qo‘shimcha yordam dasturlari amalga oshirish.

3. Ayollarni iqtisodiy jihatdan mustaqil qilish uchun kasb-hunar o‘rgatish va ish bilan ta’minlash, ularning mehnat bozoriga kirishini qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun grantlar va kreditlar taqdim etish.

4. Og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarning muammolarini hal qilish va jamiyatga qo‘shish.

5. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash. Oilaga asoslangan bolalarni parvarish qilishning muqobil shakllarini rivojlantirish.

6. Ayollarni himoya qilish: Zo‘ravonlik va jinsiy zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollarni qo‘llab-quvvatlash kabi bir qator yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Hammaga ma’lumki oila jamiyatning bir bo‘lagi, oila farovon bo‘lsa, jamiyat ham farovon bo‘ladi. Shunday ekan, oilalarni qo‘llab-quvvatlashning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

✓ Buning uchun har bir oilaning o'ziga xos ehtiyojlari va muammolarini aniqlash uchun individual yondashuvni qo'llash. Oilalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar va dasturlarni ishlab chiqish.

✓ Ijtimoiy ishchilarni o'qitish, ijtimoiy ishchilarni muntazam ravishda malaka oshirish kurslari va treninglar bilan ta'minlash.

✓ Mutaxassislar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish. Masalan, psixologlar, huquqshunoslar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

✓ Innovatsion texnologiyalarni qo'llash va oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun raqamli platformalar va mobil ilovalarni yaratish.

✓ Oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun ta'lim va tarbiya dasturlari muhim ahamiyatga ega. Bu dasturlar ota-onalarga bolalarni tarbiyalashda yordam berish, ularning rivojlanishini kuzatish va muammolarni erta aniqlashga yordam beradi.

✓ Onlayn maslahatlar va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini kengaytirish ijtimoiy muammolarni yanada tez, aniq va ishonch bilan yengib o'tishimizga imkon yaratadi.

Xulosa o'rnida aytish joyizki oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi sababli, oilalarni har tomonlama mukammal qo'llab-quvvat va o'rganish, ulardagi turli xil muammolarni vaqtda aniqlash va tezlik bilan hal etish, tizimli yechimlar berish, to'g'ri rejali ish yuritish, qanday muammoli oilalarni bu muhitdan olib chiqish va jamiyatga qo'shish kabi masalalar ijtimoiy ishning muvaffaqiyatiga bog'liqdir. Shu boyisdan ijtimoiy ishchilar oilalarga yordam berish orqali jamiyatning umumiy farovonligini oshiradilar.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Вакулин О. С. Семейное консультирование и семейная терапия в рамках социальной работы с семьей // Рос. журн. социальной работы. 1998. № 2/8.

2. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/stories/oilalarni-sifatli-qollab-quvvatlash-ijtimoiy-ishning-asosidir>.

3. Принцип активизации в социальной работе / Под ред. Ф. Парслоу. Пер. с англ. М., 1997.

3. <https://lex.uz/docs/-4740345>

4. <https://lex.uz/docs/-5884143> 5. <https://lex.uz/docs/-6720230>